

## ARBITRAJ VA HAKAMLIK SUDLARINING PROTSESSUAL XUSIYATLARI: QIYOSIY YONDASHUV

Sattorov Tolibjon

Toshkent davlat yuridik universiteti Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish mutaxassisligi  
magistranti <mailto:sattorovtolibjon45@gmail.com>

**Annotatsiya (Abstract):** Ushbu tezis arbitraj va hakamlik sudlarining protsessual xususiyatlarini qiyosiy huquqiy tahlil usuli orqali o'rganadi. Tadqiqot doirasida ikkala institutning protsessual tartibidagi o'xshashliklar va farqlar, ularning huquqiy tabiati, tomonlarning protsessual holati, hakamlar maqomi, dalillar yig'ish tartibi, qarorlarning kuchi va ijrosi kabi masalalar chuqur ko'rib chiqiladi. Tezis O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, UNCITRAL Model qonuni, Nyu-York Konvensiyasi va yetakchi xalqaro arbitraj institutlarining qoidalari asosida yozilgan. Tadqiqot natijalari muqobil nizo hal qilish tizimini rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** arbitraj, hakamlik sudi, protsessual tartib, muqobil nizo hal qilish, hakamlik shartnomasi, kompetens-kompetens, separabillik, hakamlik qarori, Nyu-York Konvensiyasi, UNCITRAL, qiyosiy huquq.

### KIRISH

Ushbu ikki o'rganilayotgan va tadqiq etilayotgan obyektlar mamlaktimizda ushbu ikki normativ asosida faoliyat olib boradi.

- Hakamlik sudlari: O'zbekiston Respublikasining 2006-yilda qabul qilingan "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. U asosan ichki milliy nizolarni hal qilishga qaratilgan.

- Arbitraj: 2021-yilda qabul qilingan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuniga asoslanadi. Ushbu qonun UNCITRAL (BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi) Namunaviy qonuni prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro xususiyatga ega nizolarni hal etishga mo'ljallangan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi — arbitraj va hakamlik sudlarining protsessual xususiyatlarini qiyosiy huquqiy tahlil metodologiyasi orqali o'rganish hamda ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlab, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va quyidagi maqsadlarni belgilash:

1. Arbitraj va hakamlik sudining huquqiy tabiatini, tushunchasini va nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Ikkala institutning protsessual tartibini bosqichma-bosqich qiyosiy ko'rib chiqish;
3. Hakamlik shartnomasi, kompetens-kompetens va separabillik doktrinalarining ikkala institutdagi qo'llanilishini o'rganish;
4. Dalillar yig'ish, eshituv o'tkazish va muvaqqat chora-tadbirlar sohasidagi protsessual farqlarni aniqlash;
5. Qarorlarning huquqiy kuchi, bekor qilish asoslari va ijro mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish;

6. O'zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlar bilan solishtirish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Asosiy qism

Nizolar taaluqligi va ishda qatnashuvchi subyektlar jihatidan tahlil qilsak Hakamlilik sudlarida faqatgina O'zbekiston Respublikasi rezidentlari o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy nizolar ko'rib chiqiladi. Oilaviy, mehnat va ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar hakamlilik sudiga taalluqli emas.

Xalqaro tijorat arbitrajida esa- nizo arbitrajga taalluqli bo'lishi uchun tijorat xususiyatiga ega bo'lishi va qoida tariqasida, taraflardan kamida bittasining tijorat korxonasi chet elda joylashgan bo'lishi yoki nizolashayotgan obyekt xorijiy davlat bilan bog'liq bo'lishi kerak. Hakamlilik sudlari va xalqaro tijorat arbitraji o'rtasidagi muhim protsessual farqlardan biri protsessual qoidalarni tanlash erkinligida namoyon bo'ladi.

Hakamlilik sudlarida taraflar nizoni qaysi qoidalar asosida ko'rib chiqilishini o'zaro kelishishlari mumkin bo'lsa-da, doimiy faoliyat yurituvchi hakamlilik sudlarida odatda mazkur sudning ichki reglamenti ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, hakamlilik muhokamasi milliy huquq doirasida nisbatan qat'iyroq tartibga solinadi. Xalqaro tijorat arbitrajida esa taraflar jarayon qoidalarini tanlashda ancha keng erkinlikka ega bo'lib, ular qo'llaniladigan huquqni, muhokama tilini va arbitraj o'tkaziladigan joyni mustaqil ravishda belgilashlari mumkin.

Masalan, taraflar UNCITRAL Arbitration Rules<sup>1</sup> kabi xalqaro reglamentlarni tanlash huquqiga ega. Agar taraflar bu borada kelishuvga erisha olmasa, arbitraj sudi qoidalarni xalqaro amaliyotdan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydi. Shuningdek, hakamlarni tayinlash tartibida ham sezilarli farqlar mavjud. Hakamlilik sudlarida hakamlar odatda milliy mutaxassislar orasidan, tegishli sud tomonidan tasdiqlangan ro'yxat asosida tanlanadi. Bu esa jarayonni muayyan darajada cheklaydi.

Xalqaro tijorat arbitrajida esa arbitrlarni tanlashda deyarli hech qanday hududiy yoki fuqarolik cheklovlari mavjud emas. Taraflar nizoning murakkabligi va xususiyatidan kelib chiqib, turli davlatlardan yuqori malakali huquqshunoslarni jalb qilishlari mumkin.

Amaliyotda xolislikni ta'minlash maqsadida ko'pincha uchinchi, neytral davlat vakili arbitraj tarkibiga rais sifatida tayinlanadi. Bundan tashqari, qarorlarning tan olinishi va ijro etilishi masalasida ham muhim tafovutlar kuzatiladi. Hakamlilik sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlar O'zbekiston hududida majburiy kuchga ega bo'lib, ular ixtiyoriy bajarilmagan taqdirda manfaatdor tomon vakolatli davlat sudiga murojaat qilib, ijro varaqasini olishi mumkin.

Xalqaro arbitraj va hakamlilik sudida ham davlat sudi nazorati qat'iy cheklangan prinsip — «pro-arbitration» siyosati. Davlat sudlari arbitraj jarayoniga faqat muayyan holatlarda aralashishi mumkin:

- Hakamlilik kelishuvini bajarilishini ta'minlash (davlat sudining hakamlikka yuboruvi);
- Hakamlar tayinlashda ko'mak (tomonlar kelisha olmasa);

<sup>1</sup> <https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/contractualtexts/arbitration>

- Muvaqqat choralarni ijro etish (hakamlik sudi ta'sirsiz bo'lganda);
- Qarorni ijro etish uchun ijro varaqasi berish;
- Qarorni bekor qilish (faqat qat'iy asoslar mavjud bo'lganda).

Xalqaro arbitraj qarorlari esa yanada kengroq huquqiy kuchga ega. Xususan, New York Convention<sup>2</sup> ga muvofiq, bunday qarorlar dunyoning 170 dan ortiq davlatlarida tan olinadi va ijro etiladi. Bu esa xalqaro arbitrajni ayniqsa transchegaraviy nizolarni hal etishda nihoyatda samarali mexanizmga aylantiradi.

#### XULOSA

Hakamlik sudlari va xalqaro tijorat arbitraji umumiy jihatdan nizolarni davlat sudlaridan tashqari, tezkor va maxfiy asosda hal etish imkonini beruvchi institutlar hisoblanadi. Biroq, hakamlik sudlari ko'proq milliy darajadagi nizolar uchun moslashgan bo'lsa, xalqaro arbitraj chet el investitsiyalari va xalqaro savdo munosabatlari uchun kengroq va moslashuvchan protsessual imkoniyatlarni taqdim etadi. O'zbekistonda ushbu ikki institutning parallel rivojlanishi esa tadbirkorlar va investorlar uchun nizolarni hal etishning eng maqbul usulini tanlash imkoniyatini yanada kengaytiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.
4. New York Convention (1958-yil, chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida).
5. UNCITRAL Arbitration Rules.

<sup>2</sup> <https://uncitral.un.org/sites/default/files/media-documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf>